

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT


2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 25 035 tani tashkil etadi, shundan 20 905 tasi yoki 83,5 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 0,2 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda 0,2 foizni tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (birlikda)



Yillar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
		Kichik biznes subyektlari	
2025	25 035	20 988	20 905
2024	24 979	20 952	20 865
2023	24 872	20 931	20 829
2022	30 430	26 547	26 447
2021	27 866	24 133	24 025

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Termiz shahrida – 18,7 foiz, Denov – 11,7 foiz, Jarqo'rg'on – 7,7 foiz, Sherobod – 6,8 foiz va Qumqo'rg'on tumanlarda – 6,7 foizdan faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Termiz shahrida – 87,7 foiz va 87,7 foiz, Denov – 83,6 foiz va 83,3 foiz, Jarqo'rg'on – 85,5 foiz va 85,1 foiz hamda Sherobod – 85,3 foiz va 85,2 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

Shahar va tumanlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
		Kichik biznes subyektlari	
Termiz shahri	4 669	4 094	4 071
Denov tumani	2 940	2 459	2 450
Jarqo'rg'on tumani	1 941	1 659	1 652
Sherobod tumani	1 709	1 458	1 456
Qumqo'rg'on tumani	1 666	1 352	1 348
Sho'rchi tumani	1 638	1 357	1 354
Termiz tumani	1 603	1 442	1 432
Sariosiyo tumani	1 400	1 084	1 079
Angor tumani	1 346	1 159	1 153
Oltinsoy tumani	1 224	975	973
Uzun tumani	1 186	944	941
Muzrabot tumani	1 054	866	863
Qiziriq tumani	1 051	870	866
Boysun tumani	988	777	776
Bandixon tumani	620	492	491

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025-yil 1-sentabr holatiga 34,0 foizni (40,5 foiz va 40,6 foiz) tashkil etdi.



Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 12,4 % (14,7 % va 14,6 %), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" 8,8 % (10,3 % dan).


Birgalikda ushbu uch turdag'i faoliyat ularning umumiyligi sonining 50 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

Korxona va tashkilotlar

Iqtisodiy faoliyat turi	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 198	2 164	2 157
Sanoat	3 096	3 077	3 057
Qurilish	1 926	1 909	1 899
Savdo	8 502	8 502	8 485
Tashish va saqlash	641	636	632
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 761	1 754	1 754
Axborot va aloqa	400	394	393
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	558	418	417
Boshqa turlar	5 953	2 134	2 111

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, 20 988 ta faol tijorat korxonalaridan 13 158 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar viloyatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	13 158	62,7
Xususiy korxonalar	4 338	20,6
Oilaviy korxonalar	3 245	15,5
Aksiyadorlik jamiyat	14	0,1
Boshqalar	233	1,1

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalarini ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 490 ta korxonalardan 67 tasi qo'shma korxonalar va 423 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, chet el investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 143 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 159 tadan 290 taga, (o'sish 131 taga), sanoat sohasida 64 tadan 71 taga (o'sish 7 taga) va axborot va aloqa sohasida 14 tadan 16 taga (o'sish 2 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turi	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	490	67	423
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	36	11	25
Sanoat	71	24	47
Qurilish	28	6	22
Savdo	290	19	271
Tashish va saqlash	15	1	14
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13	1	12
Axborot va aloqa	16	-	16
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	-	5
Boshqa turlar	16	5	11

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 309 ta korxona bilan Afg'oniston respublikasi egalladi. Bu viloyatdagi chet el investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 63,1 foizini tashkil etdi. Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (8,0 %), Tojikiston (6,3 %), Turkiya (5,9 %), Xitoy (4,7 %) va Qozog'iston (2,0 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	490	67	423
Afg'oniston	309	18	291
Rossiya	39	12	27
Tojikiston	31	8	23
Turkiya	29	4	25
Xitoy	23	7	16
Qozog'iston	10	4	6
Pokiston	8	-	8
Eron	6	4	2
Hindiston	4	2	2
Buyuk Britaniya	3	-	3
Belorussiya	3	-	3
Armaniston	3	3	-
Janubiy Koreya	3	1	2
Turkmaniston	2	1	1
Ukraina	2	-	2
Ozarbayjon	2	-	2
BAA	1	-	1
Qirg'iz Respublikasi	1	-	1
Yaponiya	1	1	-
Boshqa davlatlar	10	2	8

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjalarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxona va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot korxona va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:

O. Raxmonov
55 451-80-00 (76-50)

Maznil:

190108, Termiz shahar,
At-Termiziyo ko'chasi, 7-uy